

Statistik ma'lumotlarni yuritish sektori menejerlarining xizmat vazifalari

- talabalar, resurslar, shartnomalar, mashg'ulotlar va talabalarning o'zlashtirishi haqidagi turli xil statistik ma'lumotlarni taqdim etish;
- talabalarning kursdan kursga qolishi, talabalar safidan chetlashtirilishi va akademik ta'tilga chiqishi bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;
- o'qishni ko'chirish va tiklashga tavsiya etilgan talabalarga oid statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;
- topshiriq va murojaatlarga asosan oliy ta'lim tashkiloti faoliyatiga doir statistik ma'lumotlarni taqdim etishga tayyorlash;
- oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan Statistika agentligiga taqdim etiladigan hisobot shakllarini yuritish;
- bitiruvchilar to'g'risida umumiy ma'lumotlar bankini shakllantirish;
- bitiruvchilar bandligini ta'minlash hamda ishga joylashganligi bo'yicha olib borilgan monitoring yuzasidan ma'lumotlarni olish, umumlashtirish va tahlil qilish;
- "HEMIS" axborot tizimiga kiritilayotgan statistik ma'lumotlarning to'g'riligini tahlil qilib borish;
- statistik ma'lumotlarni yuritish sektori menejerlariga kerakli ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va qayta ishlash uchun so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etishda OTT tuzilmasidagi boshqa bo'linmalarning xodimlari yordam berishlari va hamkorlikda ishlashlari lozim.